



DAVLAT XIZMATCHILARINING BOSHQARUV KOMPETENSIYASINI O'RGANUVCHI XALQARO ILMIY- TADQIQOT MARKAZLARI VA MUASSASALARI

Mardanov Sardorbek Zafar o'g'li

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

Ijtimoiy Fanlar fakulteti Siyosatshunoslik yo'nalishi

Siyosat-22/A1 guruhi 3-kurs talabasi

E-pochta: davronovz73@gmail.com

O'zbekiston Respublikasi. Toshkent sh.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15046070>

ARTICLE INFO

Received: 27th February 2025

Accepted: 28th February 2025

Published: 18th March 2025

KEYWORDS

Davlat xizmati, davlat xizmatchilari, boshqaruv kompetensiyasi, xalqaro ilmiy-tadqiqot muassasalari, Xalqaro Loyihalarni Boshqarish Assotsiatsiyasi, BMT Inson Huquqlari Bo'yicha Kengashi, BMT Davlat xizmati bo'yicha xalqaro kommissiya, Amerika Menejment Assotsiatsiyasi, Xalqaro Mehnat tashkiloti, Amerika Biznes Maktablarini Rivojlantirish Markazi, Kreativ Yetakchilik Markazi, Osaka Universiteti, Seul Milliy Universiteti, London Iqtisodiyot va Siyosiy Fanlar Maktabi, Berlin Gumbold Universiteti, Berlin Ozodlik Universiteti, Li Kvan Yu Davlat Siyosati Maktabi, Kanada Davlat Xizmati maktabi, Xitoy Davlat Xizmati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada xalqaro darajada ko'pchilik davlatlarning davlat xizmati sohasida davlat xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyasini tadqiq etuvchi va o'rganuvchi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari va muassasalari haqida ilmiy asosdagi ma'lumotlar beriladi. Davlat xizmatida davlat xizmatchilarining "boshqaruv kompetensiyasi"ni tadqiq etuvchi ilmiy-tadqiqot markazlarining institutsional asoslari va ularning mazkur soha muammosidagi xalqaro faoliyati maqolada ko'rsatib beriladi. Maqolada davlat xizmatchilarining "boshqaruv kompetensiyasi"ning ilg'or texnologiyalari va modellarini tadqiq etish zarurati mazkur ilmiy-tadqiqot markazlari faoliyatining fundamental asosi sifatida klassifikatsiya qilinadi. Mazkur ilmiy-tadqiqot markazlarining davlat va nodavlat turlari, bugungi kunda bir qator xalqaro ta'lim muassasalarining ham yuqoridagi muammoni o'rganuvchi markazlarga egaligi va ularning progressiv xarakteri maqolada keltirib o'tiladi

KIRISH

Maqola mavzusining dolzarbligi. Zamonaviy davlat xizmatida davlat xizmatchilarning boshqaruv kompetensiyasini davlat xizmati munosabatlariga moslashtirish, "Siyosiy stressga chidamliligini oshirish"¹, zamonaviy davlat xizmatchisi sifatidagi aniq maqomiga va

¹ Stressga chidamlilik atamasi – siyosatshunoslik sohasida dastlab xalqaro munosabtlar va siyosiy jarayonlarda qo'llaniluvchi siyosiy definitsiya bo'lgan. Biroq mazkur fenomen davlat xizmatida davlat xizmatchilari, rahbar lavozimlar, boshqaruv rahbarlarining vaziyatga va bo'layotgan jarayonga moslasha olish va inqirozli vaziyatlarda ratsional va samarali strategiyalarni ishlab chiqa olishi va qo'llay bilishi tushuniladi. Mazkur terminalogiya siyosatshunoslikka 1973-yilda amerikalik olim Krauford Xolling tomonidan olib kirilgan va hozirda siyosatshunoslikda siyosiy xulq-atvor masalalarida va siyosiy psixologiya tarmoqlarida samarali texnologiyalariga ega.[Jalilova H.Y. Davlat xizmatchilari shaxsida stressga chidamlilikni shakllantirishning psixologik jihatlari. Integratsiyalashan ta'lim va tadqiqotlar jurnali. ISSN: 2181-3558. 2024. 1-2b <https://in-academy.uz/index.php/yo/article/download/25003/16354/23974>]

pozitsiyasiga ega bo'lishi uchun takomillashtirishi zarurat hisoblanadi. Mazkur zarurat davriy evolyutsiya asosida davlat xizmatiga aloqador manbalarni tadqiq etgan olimlarning nuqtai nazarlarida o'z aksini topgan. Hozirgi kunda esa, bu bir qator ilmiy-tatqiqot institutlari va markazlarining obyektiga aylangan. Mazkur tuzilmalar davlat sektorlarida va nodavlat sektorlarida samarali faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Maqolada aynan ushbu tatqiqot markazlari va insitutlaridan bir qatorlarining faoliyati insitutsional jihatdan yoritib beriladi.

Maqolaning predmeti. Davlat xizmati munosabatlarida davlat xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyasini va shunga bog'liq texnologiyalarni kompleks tahlil qiluvchi va yangi siyosiy texnologiyalar ishlab chiquvchi ilmy-tatqiqot markazlari va insitutlari maqolaning predmetini tashkil etadi.

Maqolaning maqsadi. Davlat xizmatida davlat xizmatchilarning boshqaruv kompetensiyasini o'rganuvchi ilmiy-tadqiqot markazlarini tatqiq etish va ularning faoliyatiga tahliliy baho berish hisoblanadi.

Maqolaning vazifalari. Davlat xizmatida davlat xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyasini o'rganuvchi xalqaro ilmiy-tatqiqot muassasalari va markazlarining institutsional asosini tahlil qilish uchun maqola quyidagi vazifalarni o'z oldiga qo'yadi:

1) Davlat xizmatida davlat xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyasini tadqiq etuvchi xalqaro ilmiy-tatqiqot markazlari haqida institutsional va tashkiliy asoslarini keltirib o'tish;

2) Davlat xizmatida davlat xizmatchilarining "boshqaruv kompetensiyasi"ning ushbu insitutlar va markazlar faoliyatida tutgan roli va natijasini yoritish.

3) Mazkur xalqaro ilmiy-tatqiqot institutlari va markazlari faoliyatini yoritish;

4) Davlat xizmatida davlat xizmatchilarining "Boshqaruv kompetensiyasi"ning taraqqiyotida mazkur ilmiy-tatqiqot markazlari va insitutlarining tutgan rolini ochib berish.

Hozirgi vaqtda xalqaro darajada davlat xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyasi va yetakchilik usullarini tadqiq etish bo'yicha dunyoning bir qator ilmiy-tadqiqot markazlari va muassasalari ilmiy va amaliy tadqiqot ishlarini olib bormoqda. Ushbu xalqaro darajadagi mazkur tashkilot va markazlar evolyutsion-progressiv dinamikada o'z faoliyatlarini amalga oshirib kelmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Davlat xizmatida davlat xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyasiga doir bo'lgan texnologiyalar, modellar va metodlarni ishlab chiqarish masalasi har bir davlatning davlat xizmati munosabatlaridagi dolzarb muammo hisoblanadi. Mazkur muammoga hozirda dunyo bo'ylab ko'pgina xalqaro nohukumat tashkilotlari va rasmiy hukumat tashkilotlari ilmiy tatqiqot ishlarini olib borishmoqda. Mazkur maqolada quyidagilar keltiriladi:

1) **Xalqaro Loyihalarni Boshqarish Assotsiatsiyasi** (International Project Management Association IPMA) – bu butun dunyo miqyosida ko'lami va qamrovi jihatidan katta bo'lgan loyiha va dasturlarni ishlab chiquvchi va tashkillashtiruvchi notijorat professional uyushmadir. Ushbu uyushma institutsional tuzilma sifatida 1965-yil Shvetsariyaning Syurix shahrida tashkil etilgan. Mazkur uyushmaning asosiy vektorlari global darajada davlat boshqaruvi, davlat xizmati va menejment sohasida mutaxassislarning, xodimlarning, davlat xizmatchilarining, menejrlarning boshqaruv kompetensiyasi, sohaviy malakalari, professionallik, ishlash qobilyatining optimalligi bo'yicha loyihalarni rivojlantirishga ko'maklashishdan iboratdir. Bular ushbu tuzilmaning funksional asosidir. Ushbu uyushma 1995-yilda loyihalarni tadbiq etish va rivojlantirish bo'yicha 4 darajali

sertifikatlash tizimini joriy etgan hisoblanadi. Strukturaviy boshqaruv tartibiga ko'ra bu uyushma - milliy uyushmalar federatsiyasi hisoblanadi. Bu uyushma hozirgi kunda barcha qit'alarda 70 dan ortiq yuqorida qayd etilgan sohaga aloqador loyihalarni ishlab chiqishga ixtisoslashgan bir qator milliy assotsiatsiyalarni birlashtirgan. Ushbu ilmiy-tadqiqot markazi bu milliy assotsiatsiyalarni hisoboti va takliflarini tahlil qilish va loyihalarning operativ imkoniyatlarini baholash bo'yicha bu ilmiy-tadqiqot markazining butunjahon kongressi chaqiriladi. Birinchi butunjahon kongressi 1967-yilda chaqirilgan. 2017-yil holatiga ko'ra, 30 ta butunjahon kongressi chaqirilgan hisoblanadi. Bugungi kunda <https://ipma.world> onlayn platforma veb-saytida o'z faoliyatiga aloqador barcha ma'lumotlarni shakllantirgan hisoblanadi.²

2) **BMT Inson Huquqlari Bo'yicha Kengashi** (United Nations Human Rights Council, UNHRC) – Birlashgan Millatlar tashkilotining organi bo'lib, uning vazifasi inson huquqlarini ilgari surish va himoya qilishdir. Institutsional tuzilma sifatidagi rasmiy maqomi 2006-yil 15-martda tashkil etilgan. Kengash bosh qarorgohi Shvetsariyaning Jenevadagi BMTning idorasida joylashgan. Ushbu muassasa inson huquqlariga aloqador barcha masalalarda vakolatli hisoblanadi. Ushbu muassasa Inson huquqlar bo'yicha oliy kommissiya idorasi va inson huquqlari bo'yicha kommissiya bilan hamkorlikda faoliyat olib boradi. Kengashning hozirgi 2024-yil holatiga ko'ra 47 ta a'zosi mavjud hisoblanadi. 2023-yil holatiga ko'ra 36 ta maxsus sessiyani o'tkazgan. Ushbu tashkilot boshqaruvi o'z faoliyatida inson huquqlari va ularning progressiv tendensiyasi doirasida hal etilishi lozim masalalarda bir qator "muammolarni", "harakatlarni" tahlil qilgan va ko'rib chiqqan. Siyosiy rakrusda davlat xizmatchilarining boshqaruv kompetensiyasi va uning dinamikasi borasida, davlat xizmatchisini yollovchi tashkilot va tuzilmalarning qo'yadigan malaka-talablari va huquqiy kategoriyasi doirasida inson huquqlariga aloqador masalalar borasidagi nuqtalarning faoliyatlarini ko'rib chiqadi.³

3) **Davlat Xizmati Bo'yicha Xalqaro Kommissiya**⁴ (International Civil Service Commission ICSC) – bu Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yordamchi organi bo'lib, 1974-yil 18-dekabrda BMT Bosh Assambleyasining 3357-sonli rezolyutsiyasi⁵ga muvofiq tashkil etilgan. BMT xizmatlari va shu bilan birgalikda xalqaro davlat xizmati munosabatlaridagi xalqaro tartibga doir bo'lgan chora-tadbirlar va loyihalar hamda tashabbuslarni muvofiqlashtiradi. Bu tashkiliy organda Bosh Assambleya tomonidan to'rt yil muddatga tayinlangan 15 nafar a'zo faliyat ko'rsatadi. Mazkur kommissiya BMTga a'zo davlatlarning davlat xizmati sohasidagi maxsus loyihalar va dasturlarni ilmiy ekspertizadan o'tkazadi⁶

4) **Amerika Menejment Assotsiatsiyasi** (American Management Association AMA) – Sanoat va tijorat menejmenti, aloqa (kommunikatsiya), moliya va buxgalteriya hisobi, inson resurslarini boshqarish, yetakchilik, xalqaro menejment, marketing va savdo kabi turli mavzularni qamrab oluvchi keng ko'lamli o'quv dasturlari, seminarlar, konferensiya, tadqiqotlar va nashrlarni taklif etuchi notijorat ilmiy-tadqiqot markazi va assotsiatsiyadir. Mazkur assotsiatsiyaning institutsional ilmiy-tadqiqot markazi sifatida XX asrning boshlariga to'g'ri keladi. Bu davr Amerika sanoati rivojlanayotgan payt hisoblanib, ushbu saboat uchun malakali ishchilarni tayyorlash muammosi yuzaga keldi. Amerika menejment assotsiatsiyasi dastlab boshqa nom bilan faoliyat olib brogan. Dastlabki vaqtlarda mazkur tashkilot 1913-yilda Nyu-Yorkda Edison kompaniyasi boshchiligida 35 ta eng muhim kasbiy maktablar **Milliy**

² <https://ipma.world/>

³ <https://www.ohchr.org/en/hrbodies/hrc/home>

⁴ <https://www.un.org/ga/commissions.shtml>

⁵ <https://documents-dds-ny.un.org/doc/RESOLUTION/GEN/NR0/739/59/IMG/NR073959.pdf?OpenElement>

⁶ <https://icsc.un.org/>

Korporatsiya Maktablari Assotsiatsiyasi sifatida (NACS) uyushma yaratish uchun birlashdilar. Amerika Menejment Assotsiatsiyasining birinchi nomi yuqorida keltirilgan nom bilan atalgan. Ushbu yilda mazkur tashkilotning nizomlari va qonun-qoidalari qabul qilindi. 1923-yilda 10-yil vaqt o'tib keyin uning nomi Amerika Menejment Assotsiatsiyasiga o'zgartiriladi. Ikkinchi jahon urushidan keyin Amerika Menejment Assotsiatsiyasining ta'siri va nufuzi yuqorilashadi. Sabab, urushdan keying malakali va yuqori tajribaga ega davlat xizmatchilariga bo'lgan talabning yuqori ekanligida edi. 1948-yilda bu tashkilot o'zining bir qator tashabbuslarini ilgari suradi ya'ni mazkur tashkilotning dasturlari uchun maxsus platformalarni joriy etish, forumlarni tashkil etish masalalari edi. Global masaladagi boshqaruv menejmenti uchun strategik tashabbuslardan iborat edi. 1950-yilda ushbu notijorat tashkiloti rasmiy hukumat va davlatlar bilan bir qator sohaviy masalalarida aloqa kommunikatsiyalarini o'rnatdi. 1961-yilda Bryussel sharida 1-markazi ochildi. So'ng, 1966-yil Meksikada, 1974-yilda Kanadada, 1993-yil Yaponiyada, 1995-yil Xitoyning Shanxay shahrida, 1996-yil Lotin Amerikasi mamlakatlarida markazlari ochildi. Ameika Qo'shma Shtatlarining o'zida Atlanta, Chikago, San-Fransisko va Vashington hamda boshqa bir qator shtatlarida mazkur tashkilot o'z faoliyatini yo'lga qo'ygan. 1963-yilda Amerika menejment assotsiatsiyasi o'rta maktab va kollej talabalari uchun mo'ljallangan "Operation Enterprise" dasturini yaratdi. Hozirgi kunda bu tashkilotning 90 davlatda 25000 a'zosi va 3000 tashkiloti mavjud hisoblanadi. Amerika menejment tashkilotining prezidenti Menni Avramidis hisoblanadi. Hozirgi kunda uning faoliyati bilan onlayn platformasining <https://www.amanet.org> veb-saytida tegishli ma'lumotlarni namoyish qiladi.⁷

5)Xalqaro Mehnat Tashkiloti. (International Labor Organization, ILO)- Ushbu tashkilot institutsional tuzilma sifatida 1919-yil oktabr oyida Millatlar ligasi tashkilotining xalqaro mehnat munosabatlari va standartlarini belgilash maqsadida tashkil etilgan. Keyinchalik BMTning xalqaro mehnat masalalari bo'yicha vakolatli agentligi etib 1945-yilda faoliyat darajasi rekonstruksiya qilingan. Unga 187 davlat a'zo, dunyo bo'ylab 40ga yaqin ofislari faoliyat yuritadi. Mazkur tashkilot 2019-yilda mehnat muhiti muammolarini hal etish uchun Global komissiyani chaqirdi. Unga ko'ra, XXI asrga kelib mehnat masalasidagi muommolarga 10 ta tavsiya ishlab chiqish vazifasi yuklatildi. Xalqaro mehnat tashkiloti hozirgi kunga qadar bir qator konferensiyalarni Jeneva shahrida bir marta o'tkazib keladi. Unda mehnat munosabatlari borasida tegishli konvensiyalar, protokollar, tavsiyalar, tashabbuslar va loyihlar ilgari suriladi. Tashkilotning bosh direktori etib 2022-yil 25-martda Gilbert Fosson Xunbo saylangan.⁸

6)Amerika Biznes Maktablarini Rivojlantirish Markazi (American Association Colleges and Schools of Business, AACSB) – mazkur tashkilot dastlab, 1916-yilda Ameika biznes maktablarini akkreditatsiyadan o'tkazish uchun Ameikaning 17 ta universiteti va kollejlari guruhi tomonidan Amerika Kollegial Maktablar Assambleyasi sifatida akkreditatsiya qiluvchi organ sifatida tashkil etilgan. Amerika Qo'shma shtatlari bo'yicha maxsus akkreditatsiya qilish markazlaridan biri Amerika Biznes Maktablarini Rivojlantirish Markazi hisoblanadi. 2023-yil iyun oyidan beri ijrochi direktori Lili Bi bo'lib kelmoqda. Mazkur tashkilot professional boshqaruv usullari va kompetensiyalari hamda akkreditatsiya bo'yicha iqtisodiy va iqtisodiy-siyosiy uyushma sifatida faoliyat yurib kelmoqda. Ameika biznes maktablarini rivojlantirish assotsiatsiyasi akkreditatsiya qilgan bir qator oliy ta'lim muassasalari mavjud. Ularga Singapur Menejment Universiteti, Kornel Universiteti, Dartmut Universiteti, Garvard Universiteti, Nyu-York Universiteti, Shimoliy-G'arbiy Universitet, Ogayo Shtati Universiteti, Tulane Universiteti, Kaliforniya Universiteti, Berkli Universiteti, Chikago Universiteti, Urbana-Champaigndagi Illinoys Universteti, Nebrana Universiteti, Pensilvaniya

⁷ <https://www.amanet.org/>

⁸ <https://www.ilo.org/>

Universiteti, Pitsburg, Ostindagi Texas Universiteti, Viskonsin-Madison Universiteti va Yel Universiteti hisoblanadi.⁹

7) **Kreativ Yetakchilik Markazi** (Center for Creative Leadership CCL)- 1894-yilda institutsional notijorat tuzilma sifatida tashkil etilgan va ushbu tashkilotning faoliyatidagi asosiy masalalar 1970-yildan boshlab Ameika Qo'shma Shtatlari va dunyo bo'ylab yetakchilarga, rahbarlarga va dunyo menejerlariga bir qator ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi dasturlarni va loyihalarini taklif qilib kelmoqda. Ushbu tashkilot yetakchilik masalasida CCL-70, CCL-20, CCL-10 modellarini yaratishgan. So'nggi 10 yillikda 2024-yil holatiga binoan, ta'lim va yetakchilik malakasini oshirish masalalarida bir qator loyihalarni ilgari suradilar. Ushbu tashkilot o'z moliyaviy imkoniyati doirasida stipendiya dasturlariga ega hisoblanadi.¹⁰

8) **Osaka University** (Osaka University UO), OU yoki Handai deb qisqartiriladi. Yaponiyaning Osaka shahridagi milliy tadqiqot universitetidir. Osaka Universiteti o'z ildizlarini Edo davridagi Tekiuku (1838) va Kaitokudo (1724) institutlariga borib taqaladi va rasmiy ravishda 1931-yilda yaponiyaning Imperator universitetlarining oltinchisi sifatida tashkil etilgan. Uning "Toyonoka" kampusida "Gumanitar fanlar", "Huquqshunoslik va siyosat", "Fan va muhandislik masalalari" bo'yicha mutaxassislariga ta'lim beradi. Osaka universiteti Yaponiyaning eng yirik bakalavr sohasidagi kadrlar va davlat ximatchilarni ishlab chiqish bo'yicha oliy ta'lim muassasasidir.¹¹

9) **Janubiy Koreaning Seul Milliy Universiteti** (Seoul of National University SNU) – 1946-yil 22-avgustda tashkil etilgan. Menejment, davlat boshqaruvi va davlat xizmatchilari borasidagi ilmiy tadqiqot ishlari va izlanishlar hamda mazkur sohalarida xodimlarni tayyorlash, o'qitish, tegishli ilmiy metodologiyalar ishlab chiqish bilan "Gyeongsong yuridik kolleji" va "Gyeongsong biznes kolleji" shug'illanadi. Mazkur universitet kollejlari davlat boshqaruvi va davlat xizmati munosabatlarida tegishli ilmiy tadqiqot ishlari Janubiy Korea davlat boshqaruvi va davlat xizmati taraqqiyotining asosiy domenanti hisoblanadi.¹²

10) **London Iqtisodiyot va Siyosiy Fanlar Maktabi** (The London School of Economics and Political Science. LSE) - 1895-yilda tashkil etilgan maktab ijtimoiy fanlar va iqtisodiyot sohasiga ixtisoslashgan. Fabian jamiyati a'zolari Sidney Uebb, Beatris Uebb, Grem Uollas va Jorj Bernard Shou tomonidan asos solingan. LSE 1900-yilda London universitetiga qo'shildi. Uning "Davlat siyosati maktabi", "Marshal xayriya va ijtimoiy tadbirkorlik instituti", "LSE yuridik maktabi", "Hukumat boshqarmasi", "Ijtimoiy siyosat bo'limi" masalalarida bir qator ilmiy tadqiqot institutlari va maktablari mavjud.¹³

11) **Germaniyaning Gumbold Universiteti** (Humboldt University of Germany HUG) - Germaniyadagi Berlin shahrida joylashgan Gumbold universiteti dastlab Fridrix Uilyam III tomonidan Vilgelm fon Gumbold, Iogann Gotlib Fixte va Fridrix Daniel Ernest tashabbusi bilan 1809-yilda ichki tashkiliy tuzilishga ega bo'lgan "Berlin universiteti" nomi bilan tashkil etilgan. 1949-yilda Berlin Gumbold universiteti nomini olgan. Uning "Iqtisodiyot", "Biznes boshqaruvi" hamda "San'at va gumanitar fanlar" fakultetlari fan, tarix, huquq, iqtisodiyot, boshqaruv, va siyosiy sohalar doirasida tegishli fan dasturlariga ega hisoblanadi. Germaniya davlat xizmati munosabatlarida davlat xizmatchilariga bog'liq ilmiy tadqiqot institutiga ega va bu institut har

⁹ <https://www.aacsb.edu/>

¹⁰ <https://www.ccl.org/>

¹¹ <https://www.osaka-u.ac.jp/en>

¹² <https://en.snu.ac.kr/>

¹³ <https://info.lse.ac.uk/staff/divisions/Finance-Division/assets/annual-accounts/PDF/2023-24-Annual-Accounts.pdf>

yili o'z hisobotlari doirasida ilmiy tadqiqot ishlarini xalqaro keng ilmiy jamoatchilikka yo'llashda ko'maklashadi.¹⁴

12) **Berlin Ozodlik universiteti** (Free Universitet of Berlin FUB) Germaniyada 1948-yilda tashkil etilgan va hozirgi kunda ushbu davlatning poytaxti Berlin shahrining Dahlem tumanida joylashgan. Mazkur universitet 10 ta boshqa universitetlar bilan bir qatorda Germaniya federal hukumati tomonidan yetakchi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritilgan. Tegishli davlat xizmatchilari boshqaruv kompetensiyasiga doir bo'lgan texnologiyalar va tadqiqot ishlarini amalga oshirib kelmoqda¹⁵

13) **Li Kvan Yu Davlat Siyosati Maktabi** (Lee Kwan Yew School of Public Policy LKYSPP) – Singapurda 2004-yil 4-avgustda rasmiy tarzda Singapur milliy universiteti qoshida institutsional jihatdan aniq maqomga ega ta'lim muassasasi sifatida tashkil etilgan. Ushbu muassasa dastlab kichik ilmiy maktab sifatida 1992-yilda Garvardning Kennedi maktabi bilan birga global siyosiy dasturni qabul qilgan. Mazkur tuzilmaning maqsadi davlat boshqaruvi standartlarini takomillashtirish, yetakchilik, davlat xizmatchilari malaka va tajriba modellarini ishlab chiqishga ko'maklashishdan iborat. Bugungi kunda Li Kvan Yu Davlat Siyosati Maktabi to'rtta sohada tadqiqot markazlariga ega: 1)Siyosatshunoslik, davlat boshqaruvi tadqiqot markazi, 2)Ijtimoiy siyosat tadqiqot markazi, 3) Xalqaro munosabatlar, global boshqaruv tadqiqot markazi, 4) Iqtisodiy rivojlanish va raqobatdoshlik tadqiqot markazi. Bugungi kunda Li Kvan Yu boshqaruv stipendiyasi ham mavjud bo'lib, ushbu stipendiya savati asosida tegishli xodimlar davlat boshqaruvi, davlat xizmati masalalarida tayyorlanadi. Li Kvan Yu Davlat Siyosati Maktabi Janubiy-sharqiy Osiyo mintaqasidagi asosiy davlat xizmatchilarini boshqaruv kompetensiyalarini tatqiq etuvchi yirik markaz va asosiy nuqtadir.¹⁶

14)**Kanada Davlat Xizmati Maktabi** (Canada School of Public Service CSPA) – bu institutsional tuzilma sifatida 2004-yil 1-aprelda tashkil etilgan. 2004-yil iyul oyidan beri Kanada G'aznachilik kengashi portfelining bir qismi hisoblanadi. Mazkur maktab 3 ta muhim tashkilotlar birlashmasidan tarkib topgan: Kanada Siyosiy Boshqaruvni Rivojlantirish Markazi (The Canadian Centre for Management Development), Kanada O'qitish va Rivojlantirish Markazi(Training and Development Canada), Kanada Tillarini Rivojlantirish Markazi(Language Training Canada). Kanada Davlat Xizmati Maktabi davlat xizmati munosabatlarida keng qamrovli zamonaviy davlat xizmati dasturlarini ishlab chiqish va amaliyotga tadbiiq etish bilan shug'illanadi. Bu maktabning amaliyotdagi keng ko'lamli ishini tashkil etishda uning to'rtta markazi ham mavjud:

- 1.Davlat sektori operatsiyalari va inklyuziya filiali (PSOIB);
- 2.Innovatsiyalar, siyosat va ko'nikmalarni rivojlantirish bo'limi (IPSDB)
- 3.Foydalanuvchi tajribasi va xizmat ko'rsatish bo'limi (UXSB)
- 4.Biznesni faollashtirish bo'limi (BEB)

Kanada Davlat Xizmati Maktabi mamlakat bo'ylab 90 dan ortiq federal department va agentliklarda umumiy davlat xizmatlarini o'rganishni qo'llab-quvvatlaydi. Kanada Davlat

¹⁴ <https://www.hu-berlin.de/de/service/veranstaltungen/archiv/250-jahre-wilhelm-von-humboldt/man-beruft-eben-tuechtige-maenner-und-laesst-die-universitaet-sich-allmaehlich-encadrieren>

¹⁵https://uzpedia.uz/pedia/berlin_ozod_universiteti

¹⁶ <https://lkyss.nus.edu.sg/research/overview>

Xizmzti Maktabi qonuniga¹⁷ va tegishli normativ hujjatlarga binoan, o'z faoliyatini amalga oshirib kelmoqda.¹⁸

15) **Xitoy Davlat Xizmati** munosabatlari – Davlat xizmati sohasidagi davlat boshqaruvi 2008-yilda mart oyida tashkil etilgan Butunxitoy xalq vakillari kongressi¹⁹ tomonidan tashkil etilgan. Hozirgi kunda Inson resurslari va ijtimoiy xavfsizlik vazirligi boshqaruvi²⁰ ostida tartibga solinadi. 2009-yil holatiga ko'ra, Xitoyda 10 millionga yaqin davlat xizmatchilari faoliyat ko'rsatadi. Hozirda "10design" loyihasi asosida "Chjuxay Davlat xizmatlari markazi" tashkil etilgan bo'lib, bu markaz davlat xizmati munosabatlarida tegishli loyihalar va dasturlar bilan shug'illanadi.²¹

Mazkur maqolada institutsional, tarixiy, "voqealar konteksi", verifikatsiya va funksional metodlardan foydalanildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMALAR

Davlat boshqaruvi mustahkamligi va rivoji uning mexanizmlari barqarorligidir. Bunday jarayon bir-biriga bog'liq elementlarni o'z ichiga oladi va bu elementlarning ichki tartibi butun tizim uchun fundamental tartibotni shakllantiradi.²² Davlat xizmati va kadrlar masalasida xalqaro tajriba va uning amaliyoti muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.²³ Hozirgi kunga kelib mamlakatlarda kadrlar, davlat xizmatchilari faoliyatida turli tuzilmalarning ya'ni mazkur faoliyat bilan shug'illanuvchi muassasa va markazlarining roli oshib bormoqda. Bu borada turli boshqaruv tizimlari, dasturlari davlat siyosati va strategiyasida amaliy ahamiyatga ega bo'lib bormoqda.²⁴ Davlat xizmati borasidagi ta'limotlar qadimgi ildizlarga ega bo'lib, ular asrlar davomida turli olimlar, allomalar, faylasuflarning asarlarida hozirgi kunga qadar yetib kelgan hisoblanadi. Sharqda Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Yusuf Xos Hojib, Amir Temur, Kaykovus asarlarida, g'arbda D.Makkeland, S.Spenser, N.Endou, R.E.Boyasis, I.V.Blauberg, Y.Xentse, Y.Metsner, M.B.Kurbatov, A.Fayol, M.I.Magura, K.A.Erikson va boshqalarning asarlari tarixiy paradigma sifatida fundamental asos bo'lgan.²⁵

XXI asr zamonaviy davlat xizmati munosabatlarining takomillashi dinamikasi mazkur sohaning barcha elementlarining keng ko'lamlı tendensiyalarini shakllanishini talab qildi. Xususan, davlat xizmatchilarining "boshqaruv kompetensiyalari"ning zamonaviy va qulay bo'lgan shakllarini yaratishni va ushbu yaratilgan modellar va texnologiyalar orqali davlat boshqaruvidagi samaradorlik va sifat ko'rsatkichlarini global darajada nayoyish qilish va raqobat muhitini kuchaytirish zarurat tusiga kirdi.

Davlat boshqaruvi mexanizmlari davlat xizmatida muhim. Davlat boshqaruvi tizimini modernizatsiya qilish, davlat boshqaruvini ochiq, dinamik, ijtimoiy tizim sifatida shakllantirishga ko'maklashuvchi optimal parametrlarni belgilash bilan uzviy bog'liqdir.

¹⁷ <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-10.13/>

¹⁸ https://www.cspsefpc.gc.ca/about_us/mandate-eng.aspx

¹⁹ https://en.wikipedia.org/wiki/National_People%27s_Congress

²⁰ https://en.wikipedia.org/wiki/Ministry_of_Human_Resources_and_Social_Security_of_the_People%27s_Republic_of_China

²¹ <https://www.10design.co/work/architecture/cultural-civic/zhuhai-civil-service-centre>

²² X.T.Odilqoriyev, D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik. – Toshkent: "O'qituvchi", 2008. 174-b.

²³ Ayitov M. Опыт подготовки сфере политических технологий в европейских странах. Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plami. – Toshkent: "Complex Print", 2022. – 22-b.

²⁴ J.Yusubov, M.Atavullayev, J.Akramov, B.Abdullayev. Amaliy siyosatshunoslik: uslubiy qo'llama. – Toshkent: Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti. 2023. 148-b.

²⁵ Muhitdinova F.A. Siyosiy va huquqiy ta'limotlar tarixi: darslik. – T.: TDYI. 2011. 104-105-b.

Tizimli samaradorlik esa davlat boshqaruvi mexanizmlarida o'zgaruvchan o'sish natijalarini shakllantiradi²⁶

Mazkur muammoga dunyo davlatlarida tashkil etilgan va xalqaro darajada o'z faoliyatini olib borayotgan xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro va mintaqaviy nohukumat tashkilotlar, bir qator universitetlar, institutlar, ilmiy-tatqiqot markazlari hamda davlatlarning o'zida tashkil etilgan vazirliklar, davlat organlari, departamentlar, agentliklar, turli siyosiy markazlar tomonidan o'rganilmoqda.

Rivojlangan davlatlar tajribasida davlat xizmatlariga zamonaviy usullarni joriy etish va foydalanish bosqichi o'tgan asrning 80-90-yillarida faol rivojlandi. Bu jarayon davlat boshqaruvida amalga oshirilayotgan islohatlarning yangi to'lqini bilan bog'liq bo'lib, turli davlat tashkilotlari tomonidan xususiy sektor tizimiga samarali boshqaruv texnologiyalarini jalb etishga, shuningdek, ortib borayotgan ijtimoiy ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan innovatsion yechimlar, xizmat sifatini yaxshilashga qaratilgan intilish deb baholanadi.²⁷

Davlat xizmatida zamonaviy metodlarning va texnologiyalarning qo'llaniishi va uning amaliyotida siyosiy fanlarning roli katta. Siyosatshunoslik sohasining sohaga qo'shadigan hissasi ham nazariya va amaliyot sembiyoziga qurilgan.²⁸ Bugungi kunda siyosiy texnologiyalarning ham roli mazkur sohada asosiy domenantlardan biridir.²⁹ Muayyan maqsadlardan biri davlat xizmati sohasida davlat xizmatchilarining "Boshqaruv kompetensiyasi"ning takomillashuvi va yangi metodlarni yaratish hisoblanisa, uning soha usullar kompleks tizimi bu texnologiyadir.³⁰ Neoinstitutsional jihatdan davlat xizmatchilarning "Boshqaruv kompetensiyasi" konsentualizatsiyasi, reduksiyasi, utilitar, funksional va instrumental asoslarini tahliliy ishlab chiqish hamda ularning istiqbolini ko'rsatish muhokama markazidagi masala hisoblanadi.³¹

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ushbu maqolada davlat xizmati munosabatlarni aynan bir davlat, xalqaro va mintaqaviy tashkilot amaliyoti nuqtai nazaridan emas, balki, xalqaro amaliyot nuqtai nazaridan tatqiq etilgan. Mazkur sohada xalqaro tajriba va amaliyotni shakllantirishga xizmat qiluvchi bir qator xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar, xalqaro va mintaqaviy nohukumat tashkilotlar, ilmiy-tatqiqot markazlari, universitetlar, institutlar faoliyati tatqiq etilgan.

Demak, davlat xizmatida davlat xizmatchilarining "boshqaruv kompetensiyasi"ni takomillashuvi ushbu sohada uchrashi mumkin bo'lgan muammoga tegishli yechimlar taqdim etadi. Davlat xizmatchilaridagi faoliyat samaradorligi davlat boshqaruvida boshqaruv resurslarini tejashni ta'minlaydi. Miqdor jihatdan sarflanayotgan imkoniyatlarning faoliyat darajasi bilan muvofiqligi ta'minlanishi ham keltirib o'tish mumkin.

Maqolada keltirilgan ma'lumotlar asosida quyidagi takliflar shakllandi:

1) Davlat xizmatida davlat xizmatchilarining "boshqaruv kompetensiyasi"ning takomillashuviga hissa qo'shuvchi texnologiyalar, modellar hamda metodlarni

²⁶ Мухаев Р.Т., Абрамова О.Г. Критерии эффективности современных систем государственного управления: проблема квантификации качества публичного управления//Фундаментальные исследования. – 2016. №7-1. С. 146-154. <http://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=40475>

²⁷ Mirzaxmedov K.M. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillahtirish mexanizmlari. Monografiya. - T.: "Ma'rifat", 2023. 123-b.

²⁸ Bo'tayev U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik. Toshkent; Info Capital Books, 2024. – 98-99-b.

²⁹ R.Jumayev. Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiya: o'quv qo'llanma. – T.: TDSHI, 2018. – 26-b.

³⁰ Bo'tayev.U. Siyosiy tahlil. O'quv qo'llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2022, 26-b.

³¹ Mirzaaxmedov K.M. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma'ruza. 2025. 2-3-b.

shakllantirishda “Davlat boshqaruvi + muhit” hamda “Resurs+maqsad” strategiyalarini hisobga olish va ularning muvozanatini ta’minlash.

2) Hozirgi vaqtda o’z faoliyati olib borayotgan davlat xizmati sohasida davlat xizmatchilarining faoliyatiga aloqador loyiha va dastur, texnologiya, metod, model ishlab chiquvchi xalqaro va mintaqaviy nohukumat tashkilotlar bilan rasmiy davlat sektorlari unifikatsiyasini ta’minlash;

3) Mazkur xalqaro va mintaqaviy nohukumat tashkilotlari, universitetlar, institutlar va ilmiy-tatqiqot markazlarining davlat xizmati sohasida davlat xizmatchilari faoliyatiga oid tashabbuslarini, metodlarining yangiliklar kontekstini kuchaytirish;

4) Davlat xizmatida davlat xizmatchilari “boshqaruv kompetensiyasida” mavjud texnologiyalarni, metodlarni, modellarni qo’llanilyotganda davlat boshqaruvi mexanizmlari va strategiyalariga mosligini tekshirish, yuzaga kelishi mumkin bo’lgan tahdidlar, zaif nuqtalarni aniqlash zaruratini hisobga olish;

5) Davlat xizmatida davlat xizmatchilarning faoliyatini tatqiq etuvchi ilmiy-tatqiqot markazlari va davlat sektori o’rtasida “Akademik almashish” amaliyotini yo’lga qo’yish.

6) davlat xizmatchilarining maqomiga va darajasiga ularning “boshqaruv kompetensiyasi” nuqtai mazaridan e’tibor qaratish va baholash;

7) davlat xizmatida davlat xizmatchilarining zamonaviy va an’anaviy me’yorlar va madaniyat korrelyatsiyasini shakllantirish

Yuqoridagi takliflar davlat xizmatida davlat xizmatchilarining “Boshqaruv kompetensiyasi”ga aloqador hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

- 1) <https://ipma.world/>
- 2) <https://www.ohchr.org/en/hrbodies/hrc/home>
- 3) <https://www.un.org/ga/commissions.shtml>
- 4) <https://documents-dds-ny.un.org/>
- 5) <https://icsc.un.org/>
- 6) <https://www.amanet.org/>
- 7) <https://www.ilo.org/>
- 8) <https://www.aacsb.edu/>
- 9) <https://www.ccl.org/>
- 10) <https://www.osaka-u.ac.jp/en>
- 11) <https://en.snu.ac.kr/>
- 12) <https://info.lse.ac.uk/staff/divisions/Finance-Division/assets/annual-accounts/PDF/2023-24-Annual-Accounts.pdf>
- 13) <https://www.hu-berlin.de/de/service/veranstaltungen/archiv/250-jahre-wilhelm-von-humboldt/man-beruft-eben-tuechtige-maenner-und-laesst-die-universitaet-sich-allmaehlich-encadrieren>

- 14) https://uzpedia.uz/pedia/berlin_ozod_universiteti
- 15) <https://lkyss.nus.edu.sg/research/overview>
- 16) <https://laws-lois.justice.gc.ca/eng/acts/C-10.13/>
- 17) https://www.csps-efpc.gc.ca/about_us/mandate-eng.aspx
- 18) https://en.wikipedia.org/wiki/National_People%27s_Congress
- 19) https://en.wikipedia.org/wiki/Ministry_of_Human_Resources_and_Social_Security_of_the_People%27s_Republic_of_China
- 20) <https://www.10design.co/work/architecture/cultural-civic/zuhai-civil-service-centre>
- 21) X.T.Odilqoriyev. D.X.Razzoqov. Siyosatshunoslik. – Toshkent: “O‘qituvchi”, 2008. 174-b.
- 22) Ayitov M. Опыт подготовки сфере политических технологий в европейских странах. Siyosiy texnologiyalarning rivojlanishi. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami. – Toshkent: “Complex Print”, 2022. – 22-b.
- 23) J.Yusubov. M.Atavullayev, J.Akramov, B.Abdullayev. Amaliy siyosatshunoslik: uslubiy qo‘llama. – Toshkent: Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti. 2023. 148-b.
- 24) Muhitdinova F.A. Siyosiy va huquqiy ta‘limotlar tarixi: darslik. – T.: TDYI. 2011. 104-105-b.
- 25) Мухаев Р.Т., Абрамова О.Г. Критерии эффективности современных систем государственного управления: проблема квантификации качества публичного управления//Фундаментальные исследования. – 2016. №7-1. С. 146-154. <http://fundamental-research.ru/ru/article/view?id=40475>
- 26) Mirzaxmedov K.M. Davlat boshqaruvi tizimini demokratlashtirishda siyosiy hokimiyat legitimligini takomillahtirish mexanizmlari. Monografiya. - T.: "Ma'rifat", 2023. 123-b.
- 27) Bo‘tayev U.X. Siyosatshunoslik [Matn]: darslik. Toshkent; Info Capital Books, 2024. – 98-99-b.
- 28) R.Jumayev. Sh.Yovqochev. Siyosiy texnologiya: o‘quv qo‘llanma. – T.: TDSHI, 2018. – 26-b.
- 29) Bo‘tayev.U. Siyosiy tahlil. O‘quv qo‘llanma. – T: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2022, 26-b.
- 30) Mirzaaxmedov K.M. Siyosat nazariyasi va metodologiyasi. Ma’ruza. 2025. 2-3-b.